



ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA TA'LIM OLUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

Joldasov I.S.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Tarix" kafedrasi katta o'qituvchisi*

Tayanch so'lar: pedagogik, axborot texnologiyalari, boshqarish, test, metod, axborot–loyiha texnologiyalari.

Ключевые слова: педагогические, информационные технологии, менеджмент, тестирование, метод, информационно-проектные технологии.

Key words: pedagogical, information technologies, management, testing, method, information and project technologies.

Резюме:

Ta'limni kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish insonning aqliy rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadi. Chunki kompyuter yordamida o'qitish jarayonida inson fikrlash usul va metodlari qatoridan induksiya va deduksiya, umumlashtirish va aniqlashtirish, tahlil va sintez, tasniflash va tizimlashtirish, abstraksiyalashtirish va o'xshatish kabilar tabiiy ravishda o'rin oladi.

Резюме:

Компьютеризация образования и использование информационных технологий вносят огромный вклад в психическое развитие человека. Потому что в процессе компьютерного обучения из ряда методов и приемов мышления человека естественным образом возникают такие, как индукция и дедукция, обобщение и уточнение, анализ и синтез, классификация и систематизация, абстрагирование и аналогия.

Summary:

The computerization of education and the use of information technology make a huge contribution to the mental development of a person. Because in the process of computer-aided teaching, the range of methods and techniques of human thinking is naturally occupied by induction and deduction, generalization and clarification, analysis and synthesis, classification and systematization, abstraction and analogy.

Elektron ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyatlarining kengayishi, fanlarni o'rganishning to'liq didaktik siklini ta'minlovchi asosiy, umumkasbiy sikl fanlarining elektron o'quv-metodik majmualari va kasbiy modul fanlaridan foydalangan holda mustaqil ishlarini tashkil etishni talab qiladi. Ta'lim jarayonidagi har qanday texnologiyalarning



ta'lim maqsadiga erishishga xizmat qilishini inobatga olsak, texnologiyalarida aloqa vositalari ta'lim jarayonining mazmuni bilan belgilanadi. Ta'lim natijalarini esa, axborot kommunikatsiya vositalariga emas, balki elektron o'quv-metodik majmualarning mazmuni va taqdimotining sifati belgilab beradi. Biz taklif qilayotgan axborot-loyiha texnologiyasini zamonaviy loyiha metodi va axborot texnologiyalarining sintezi sifatida baholash mumkin. Tadqiqotda taqdim etilgan axborot-loyiha texnologiyasi ilgari qo'llanilgan loyiha metodini kengaytiradi va algoritmlaydi, bu ta'lim tizimi sifatida ko'rib chiqiladi, unda ta'lim oluvchilar asta-sekin murakkabroq amaliy loyiha vazifalarini rejalashtirish va bajarish jarayonida zaruriy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish va ta'lim oluvchilarning qo'yilgan maqsadini hisobga olgan holda faoliyat turini mustaqil tanlash ko'nikmasi, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'rganilayotgan muammoning to'liq yechimini berishi emas, uning keyingi rivojlanishi masofaviy ta'lim va o'qitish sharoitida davom ettirilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Unda amaliy kompetensiyani shakllantirishni rejalashtirish va bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan amaliy kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni amalga oshiriladigan loyihalar nazarda tutiladi. Shu o'rinda umumta'lim fani sifatida axborot texnologiyalari o'quv predmeti yordamida ijtimoiy gumanitar, aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi va uni o'qitish jarayoni samaradorligini oshirishga ulkan imkoniyatlarni yaratadi.

Texnologiyaning mohiyati loyiha topshiriqlarining fanlararo bog'liqligi, loyihaga xos bo'lgan kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoni hal qilish integratsiyalashgan bilimlarni jalb qilishni talab qilishi hamda talabalarga keng ma'lumotlarning muhim, yo'naltiruvchi xarakterdagilarini esda saqlab qolishga ham sharoit yaratadi. Bu esa, mustaqil ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan fanlararo bilimlar va bo'lajak kasbiy muammolarini hal qilish vositasiga aylanishi kerak. Ta'lim oluvchilar o'zlashtirilgan kompetensiyalarni qo'llash va ularni takomillashtirish uchun mustaqil faoliyatga tayyor bo'lishlari kerak. Integrativ, fanlararo ko'nikmalarni shakllantirish hamda mustaqil ishini bajarishni loyihalashtirish va shu asosda belgilangan vazifalarni ketma-ket amalga oshirilishi, ularning murakkablik darajasi oshishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, kasbiy nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishga qaratilgan tadqiqot loyihalari ham topshiriqlar, mustaqil o'quv-tadqiqot ishlari hamda kasbiy faoliyatning individual muammolarini chuqur o'rganishni talab qiladi.

Shunday qilib, axborot – loyiha texnologiyalari ta'lim oluvchilarning kasbiy va o'quv motivatsiyasini rivojlantirishga imkon beradi. Umumta'lim va mutaxassislik fanlariga oid bilimlar tizimi orqali amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi, ular kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni hal qilishda, shuningdek, axborot



maydonida harakat qilishda qo'llanilishi bilan ham ahamiyatlidir. "Pedagogik texnologiya" atamasining mazmuniga e'tibor bersangiz, pedagogik vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan bilim sohasi yoki pedagogika fanining bir qismi, ta'lim natijalariga erishishning dinamik jarayoni, bir qator tamoyil va qoidalarga rioya qilgan holda ta'lim jarayonini amalga oshirish vositasi va tashkil etish usuli hamda bilimlar, munosabatlar, harakatlar, shakllar, metodlar, metodlar majmui sifatidagi to'rtta asosiy yondashuvini aniqlashga imkon beradi.

Adabiyotlarda pedagogik texnologiyaga "o'zgaruvchan ta'lim jarayoni sharoitida tashxis qo'yilgan va bashorat qilinadigan natijaga erishishni instrumental ravishda ta'minlaydigan tartiblangan harakatlar, operatsiyalar va protseduralar to'plami"[1] yoki ta'lim texnologiyasini "ta'limning yanada samarali shakliga erishish uchun inson va texnik resurslarni va ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hisobga olgan holda bilimlarni o'zlashtirishning butun jarayonini rejalashtirish, qo'llash, baholashning tizimli usuli"[2] degan tushuntirishlarni uchratish mumkin. Shuningdek, bir qator mualliflar ta'lim texnologiyasini ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib, kutilgan natijaga erishish uchun rejalashtirish, tashkil etish va tuzatish bo'yicha talabalar va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati sifatida qaraydilar [3].

Ta'lim texnologiyalari kasbiy tayyorlashga qaratilganligi va amaliyotga yo'naltirilganligi bilan sifatlanadi va uning quyidagi xususiyatlarini sanab o'tish mumkin:

- o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati hamda faoliyatning yakuniy natijalarini va ularga erishish jarayonini aniqlash;

- ta'lim olishda o'z-o'zini boshqarish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlari va natijalarini nazorat qilish;

- ta'lim va amaliy faoliyat klasteri subyektlari faoliyati uchun hamkorligi ta'minlangan qulay sharoitlar yaratish, talabalarning shaxsiy salohiyatini ochish, amalga oshirish va rivojlantirish uchun sharoitlarni izlash va yaratishga yo'naltiriadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, aksariyat zamonaviy tadqiqotlarda asosiy toifalardan biri bo'lgan integratsiya pedagogik nuqtai nazardan "ta'lim jarayoni sub'ektlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanishga va sharoitlar yaratishga qaratilgan ta'lim tizimini yaratish uchun asos sifatida qaraladi"[4]. Ushbu yondashuvga asoslanib, tavsiflangan texnologiyani integrativ deb tasniflash mumkin, chunki mavjud ta'lim texnologiyalari o'quv va ishlab chiqarishning ta'lim zahiralarni birlashtirib, ular o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar talabalar amaliy faoliyat klasterining alohida predmeti tomonidan amalga oshiriladi va uning oldiga aniq belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan. Shunday qilib, amaliyotga yo'naltirilgan



texnologiyalarni yaxlit didaktik tizimni tashkil etish jarayoni, usullar ketma-ketligi va ularni amalga oshirishda amaliy faoliyati tajribasiga bog'liq bo'ladi, degan fikrga kelishimiz mumkin.

Ta'lim texnologiyaning amaliyotga yo'naltirilishida:

- ta'limning uzluksizligi, bilimlarning yaxlitligi, talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyat tajribasini o'zlashtirish uchun sharoit yaratish;
- qiziqishlarni ta'lim ehtiyojlariga muvofiq taqsimlashga asoslangan va individual ta'limga asoslangan kasbiy mazmunini tanlash;
- kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun muhim shaxsiy xususiyatlarni, shuningdek, amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kabi jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

Bukasbiy kompetensiyaning shakllanganlik darajasi, o'quv-amaliy harakatlarni motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv darajalarda majmuaviy shakllantirishni ko'zda tutadi. Ushbu texnologiyani loyihalashda turli xil psixologik-pedagogik tushunchalarni, turli metod va o'quv vositalarini o'zida mujassamlashtirib, samarali mustaqil ta'limni tashkil etishi hamda ularda kasbiy kompetensiyalarini majmuaviy shakllantirishni ko'zda tutuvchi o'quvchi va ustoz hamkorligini yo'lga qo'yish, talabalar bilan ustoz-shogird tamoyilida qayta aloqali muhitni yaratishni o'z ichiga oladi. Ta'lim texnologiyasi mezonlariga (konseptuallik, tizimlilik, boshqaruvchanlik, samaradorlik va ishlab chiqaruvchanlik) muvofiq, amaliyotga yo'naltirilgan texnologiya o'z tuzilmasida quyidagi aniq belgilangan bloklarga ega: konseptual, mazmunli va jarayonli. Kasbiy rivojlanishning individual komponentini shakllantirishda o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanish juda zarur, chunki bu talabalarning shaxsiy fazilatlarini namoyon etish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Ikkinchisi fanni o'rganish motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu chuqur tizimli amaliy ko'nikmalarni egallashga olib keladi.

O'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bilan bir vaqtda kasb tanlashga qaratilgan faoliyatni shakllantirishga yordam beradigan amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv ta'limning yakuniy mahsulotiga qaratilgan bo'lib, bu talabalar o'rtasida aniq kasbiy rivojlanishni ta'minlaydi. O'quv va tadqiqot faoliyati konsepsiyalari talabalarning o'z faoliyatini bashorat qilish va loyihalash qobiliyatiga asoslanadi. Bu ayni paytda faoliyatga moslashuvchan va uning rejalashtirilgan natijasini ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlariga bog'liqligini ta'minlaydi ya'ni, talabalarning shunchaki tashqi kuzatuvchi sifatida emas, balki faoliyat subyekti bo'lish istagini belgilaydi. Bu hamkorlik rejalashtirish va muloqot qilish ko'nikmalarini, mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi va natijada kasbiy rivojlanishning individual komponentini shakllantirishga yordam beradi.

Rejalashtirilgan natijalarga erishishga qaratilgan o'qitish metodlari orasida shaxsga yo'naltirilgan va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim metodlarini ajratib ko'rsatish mumkin.[5] Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlari muammoli ta'lim metodlari (materialni muammoli va mazmunli taqdim etish, qisman izlanish va tadqiqotchilik, loyihalash, keys, ekspert baholash metodlari)ni o'z ichiga oladi. Asosiy yo'nalish sifatida dars mashg'ulotlariga amaliy ustuvorlik berish talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, tadqiqot faoliyati hamda guruhda samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim metodi ta'lim muhitini yaratishning o'ziga xos tamoyili bo'lib, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va amaliy faoliyat klasteri subyektlarining (maktab, OTM, ishlab chiqarish) muammolarini hal qilishga qaratilgan fanlar mazmunida amalga oshiriladi. Ikkinchidan, ta'lim klasteri subyektlari muhitini tashkil etishga yordam beradi. Ta'lim klasteri subyektlari deganda, bo'lajak pedagog (talaba)lar, kelajak faoliyatidagi hamkorlar (o'quvchi) hamda buyurtmachi (ota-ona)larni hamda klaster muhitini ularning manfaatli hamkorligik sharoiti va jarayonini nazarda tutganmiz.[6]

Tadqiqotchilik metodi talabalarning mantiqiy fikrlashi va to'liq mustaqil bo'lishga qodir bo'lgan muammolarni hal qilish yo'llarini topish, OTM lari amaliy mashg'ulotlarining sifatii va miqdoriy tahlillarini bajarishda, ta'lim subyektlaridagi mavjud muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish amaliyotida samarali hisoblanadi. Talabalarni tadqiqot ishlariga yo'naltirishda Keys metodi ("keys-stadi")dan foydalanish mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni yechish, vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini aniqlash, uni hal qilishning mumkin bo'lgan yo'llarini ko'rib chiqish va eng yaxshi variantni aniqlash kabi jihatlari bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Shuningdek, ekspert baholash metodi (komissiya metodi, aqliy hujum, aylana stol) yordamida talabalarni amaliy faoliyatga yo'naltirishda murakkab pedagogik jarayonlar, hodisalar yoki vaziyatlarni tahlil qilish imkonini yaratib berish mumkin. Ushbu metod muqobil yechimlarni baholash va ilmiy munozaralar olib borish qobiliyatini rivojlantiradi.

Talabalarning shaxsiy faolligi, o'quv va kasbiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, kasb tanlash hamda talabalarning prognostik faoliyati kabi kasbiy rivojlanish komponentlarining shakllanishiga olib keladi.[7] Ta'lim jarayonida talabalarning faolligini ta'minlash, olgan bilimlarini hayot bilan bog'lash imkonini beradi. Ularda kasbiy kompetensiyani tizimli shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlarda kuzatish hamda olingan natijalarni amalda qo'llash bosqichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, fanga oid masalalarni yechish jarayonida talabalar murakkab aqliy faoliyatni amalga oshiradilar, bu esa tafakkurning (bilimning) mazmunii tomonini ham, samarali tomonini ham (mahorat) rivojlanishini belgilab beradi. Masala yechish bilimlarni



mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bosqichida amalga oshiriladi.

Ta’lim oluvchilarda amaliy kompetensiyani shakllantirishning axborot-loyiha texnologiyalaridan yana biri bu modellashtirish bo‘lib, unda ma’lum bir hodisani, obyektning uning modellari yordamida o‘rganishga asoslangan. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limning barcha o‘ziga xos metodlari kasbiy rivojlanishning individual-shaxsiy komponentini shakllantirishga va tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Amaliy faoliyat klasteri muhitida (dars-suhbat, dars-ma’ruza shaklida o‘tkaziladi) foydalanish aqliy, kommunikativ, fikrlash va boshqa shaxsiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Amaliy mashg‘ulotlar, shuningdek, maslahat darsi, integratsiyalashgan dars, o‘yin darsi, muammoli o‘qitish elementlari bo‘lgan seminarlarda “fikrlash” holatida bo‘ladi va muammoli vazifalarni hal qilishda hammuallif sifatida qatnashdilar. Integratsiyalashgan darslarda mavzu mazmuni turli nuqtai nazardan o‘rganilsa, dars – o‘yin darsida talabalarning turli xil o‘quv faoliyati va kognitiv faoliyatiga qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi. Ta’lim va amaliy faoliyat klasterida amalga oshiriladigan kasbiy rivojlanish uchun ta’lim jarayonini amaliyotga tatbiq etishning uch bosqichni o‘z ichiga oladi: birinchisi, kasbiy moyilligini aniqlash; ikkinchisi - kasbiy yo‘nalishni shakllantirish; uchinchisi - kasbiy rivojlantirish.

Shunday qilib, kasbiy kompetensiyani tizimli shakllantirishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlarning didaktik ta’minoti ta’lim jarayonini tashkil etishning turli shakllarini optimal integratsiyalashuvi tizimli yaxlit integratsiyalashgan amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasining uslubiy va tashkiliy-uslubiy asosini tashkil etadi, bu esa kasbiy tayyorgarlikning shakllanishni kuzatish, taqlid, qo‘llash bosqichlarida yakka va jamoaviy tarzda ishini tashkil qilishda axborotli resurslarini keng jalb qilishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. Toshkent, 2006.-160 b.
2. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе: Анализ зарубежного опыта. М.: 1989.
3. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.
4. Беляева А.П. Интегративно-модульная педагогическая система профессионального образования / А.П. Беляева. – СПб., 1997. – 226 с.
5. Тягай Е.Д. Практико-ориентированное обучение: новые подходы. Опыт подготовки студентов бакалавриата в Институте бизнес-права. Вестник Университета имени О.Е. Кутафина. – 2016. – №7 (23). – С.8- 13
6. Joldasov I.S. “Talabalarda amaliy kompetensiyani shakllantirishning axborot-loyiha texnologiyalari”. Muғallim хэм ўзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал. – 2024. – № 3/3. – В. 767-771.
7. Федорова М.А. Теория и методическое обеспечение формирования учебной самостоятельной деятельности студентов в вузе: дис.д-ра пед. Наук. М.А. Федорова. – Орел, 2011. – 39 с.